



## OILADA ER-XOTIN GENDER TENGLIGINI TA'MINLANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

U.Saribayeva

orcid: 0009-0005-7230-7313

umidasaribayeva@utas.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14886608>

**Annotatsiya:** O'zbek oilalarida gender tengligini ta'minlanishi xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham beradi, ijtimoiy-madaniy rivojlanishning barcha jarayonlarida ayollarning samarali ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydi. Gender tengsizligini saqlanib qolinishida gender stereotiplarining ta'siri aniqlangan. Gender tengligini takomillashtirishda gender kompetentlikni oshirish imkoniyatlari, ijtimoiy-psixologik omillarning o'rni va ahamiyati ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** gender tenglik, gender tengsizlik, kamsitishga barham berish, ijtimoiy-madaniy rivojlanish, imkoniyat, gender stereotiplari, takomillashtirish, gender kompetentlik, ijtimoiy-psixologik omillar.

### **Kirish.**

Jahonda gender strategiyalar samaradorligini oshirish va gender tenglikni saqlanishiga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish ustuvor vazifa sifatida qabul qilingan, gender ma'lumotlari indeksi butun dunyo bo'ylab gender ma'lumotlarining mavjudligi va ochiqligini o'lchaydi. O'zbekistonning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarida "gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish", "xotin-qizlarning alohida maqomi va ularga nisbatan hurmatini tiklash", gender tengsizlikni bartaraf etish yo'llarini izlab topish maqolada yoritilayotgan muammolarning dolzarbligini asoslaydi[1-4].

Sh.M.Bern (1999) ijtimoiy rol kutilmalari nazariyasiga asoslanib, ijtimoiy belgilangan me'yorlar asosida genderni jinsiy tafovutlanishini, jins sifatida tarkib topishini; jinsiy rollar va gender sifatlarini shakllanishini; gender tengsizlik va oilada genderga asoslangan kasmitish, zo'ravonlik muammolarini, gender stereotiplarini professional tanlovga, kareraga ta'sirini ilmiy tadqiq etilgan[5].

V.M. Karimovanning tadqiqotlari ham diqqatga sazovor bo'lib, ayollar shaxslararo hamda o'ziga nisbatan bo'layotgan insoniy munosabatlarga alohida e'tibor berishi va aynan ularning muvofiqlashtiruvchisi rolini bajarishi va erkaklarni asosan liderlik pozitsiyasida bo'lishi; Z.Rasulova tadqiqotlarida erkaklarning oila boshlig'i sifatida faqat erkak respondentlar tomonidan e'tirof etilishi, ayollar esa erkaklarni nafaqat oila boshlig'i sifatida, balki, mard bo'lishlarini istashlari aniqlangan, [6-7].

### **2. Real va ideal "MEN" sifatlarini aniqlash va tadqiqot usuli**

T.Liri, G.Leforjem, R.Sazekom (1954) tomonidan yaratilgan usul sub'ektning o'zining hayotdagi va ideal "MEN"i haqidagi shaxs sifatlarini o'rganishga qaratilgan, [8-9].

Tadqiqotda foydalanilgan ushbu testning birinchi bosqichida sinaluvchilar avval o'zlarini haqiqiy "MEN" sifatlarini, ikkinchi bosqichda ideal-orzudagi "MEN" sifatlarini baholashdi.

Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra erkaklar o'zlarini erkaklik xususiyati sifatida aqliy intellekt, emotsional intellekt, axloqiy intellekt shakllanishi zarur, jumladan, o'z vaqtida jiddiy va to'g'ri qaror qabul qila olish, mantiqiylik, mulohazakorlik, intellektual kreativlik, kuchli yetakchilik, jamoada do'stona munosabatlarni o'rnatish, hamkorlik, hamjihatlik, fidoiylilik, mas'uliyatlilik, irodalilik, javobgarlik, sobitlilik, faollik, qat'iyatlilik, tezkorlik, mustaqillik, barqarorlik, dovyuraklik, intizomlilik, ephillik, uddaburonlik, tartiblilik, tadbirkorlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik xislatlari shakllangan bo'lishi zarur deb baholashgan. Ushbu ko'rsatkichlarning nafaqat ijtimoiy faol ayollar, balki uy bekalari ham o'zlarida shakllanishi zarurligiga ijobiy qarashgan.

### **3. Eksperimental natijalar va ularning psixologik tahlili.**

Shuningdek, "Bo'ysinuvchanlik" ko'rsatkichi bo'yicha ayollarning amaldagi o'zlariga bergan bahosi 8,6 ball o'rtadan yuqori bo'lib, an'anaviy munosabatlarda ayollik sifatlarini tarkib topganligidan dalolat

beradi. Ayollarning bahosi ushbu tasdiq bo'yicha 6,1 ballni tashkil etgan va orzularida ayollar haqiqiy hayotlariga nisbatan erkinroq, mustaqilroq bo'lishga intilishlarini ko'rsatadi, 1-jadval.

**Er-xotinlar hayotdagi va ideal "MEN"ni baholash natijalari 1-jadval**

Real timsol ko'rsatkichlari								
Gender sifatlar	Bo' ysinuvchanlik	Do' stona bag' rikenglik	Javobgarlik, fidoiylik	Ishonuvchanlik, yon beruvchanlik	Talabchanlik, qattiqqo' llik	O' ziga ishonch	Hukmron, buyruq beruvchi	Shubxalanuvchi
Styudent t-mezoni	2.218	1.211	1.690	1.021	1,547	2,366	1,520	0,784
p	0,05*	0,327	0,789	0,902	0,628	0,05*	0,877	0,788
Ideal timsol ko'rsatkichlari								
Styudent t-mezoni	2,178	2,754	1,628	1,951	2,954	2,691	2,901	1,678
p	0,01**	0,01*	0,398	0,902	0,01**	0,01*	0,01**	0,590

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha erkaklar o'zlariga 6,6 ball, ideal-orzudagi istaklarini - 4,2 ball baholashgan, bu ijtimoiy va oilaviy munosabatlar, etnomadaniyat xulq-atvor normalarida erkakni bo'ysunmasligi, yon bermasligi bilan bog'liq qarashlarni mavjudligi bilan izohlanadi. Bo'ysinuvchan, yon beruvchi erkak, "kuchsiz, bo'shang, ilojsiz, nochor" ahvolda tasavvur qilinishini isbotlaydi. "Do'stona bag'rikenglik" ko'rsatkichida ayollar amalda o'zlariga 11,4 ball, erkaklar - 12,1 ball - ya'ni o'zlarining nazarlarida hayotlarida juda bag'rikeng ekanliklarini bildirishgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ideal-orzuda ayollar - 9,1 ball, erkaklar 10,6 ball berishganligi bag'rikenglik qilishlari boshqalar tomonidan qadrlanmasligi va uni biroz kamaytirish kerakligini tasdiqlashgan, aslida ular do'stona munosabatlar, bag'rikenglik sifatlarini shaxs qadr-qimmatini bilan aralash va noto'g'ri tasavvur qilishlarini bildirishgan.

"Javobgarlik, fidoiylik" ko'rsatkichlari har ikki ayollarda ham, erkaklarda ham amalda yuqori 11,6 - 11,2 ballni tashkil etgan. Ideal orzuda har ikkisi ham biroz kamroq baho berishgan - 8,5 ball va 9,2 ball, bu har ikki erkak va ayollarda javobgarlik va fidoiylik sifatleri ularni zimmalaridagi yukni, ma'sulligini, ulardan birmuncha yengil bo'lishga nisbatan intilish mavjudligini izohlaydi. Demak, erkak va ayol sifatida zimmalariga juda ko'p yuk olishlari, tashvishlari, xavotirlanishlari ularda shaxs sifatida ichki xotirjamlikka ehtiyoji balandligini ko'rsatadi.

"Ishonuvchanlik, yon beruvchanlik" ko'rsatkichi bo'yicha ayollarning haqiqiy hayotdagi bahosi 10 ball, erkaklarning bahosi 10,4 ball; ideal orzudagi ayolning bahosi 8 ball, erkakniki 9 ballni tashkil etgan. Bu holatdagi natijalar ishonuvchanlik, yon beruvchanlik sifatlarini namoyon etilishi erkak va ayol munosabatlarida har doim ham o'zini oqlamasligi haqidagi tasavvurlarini mavjudligi bilan izohlanadi.

"Talabchanlik, qattiqqo'lilik" ayollarning o'zlariga bergan haqiqiy bahosida 7,3 ball, erkaklarda 8,4 ball; ideal orzudagi bahosida ayollarda 9,7 ball, erkaklarda 11 ballni tashkil etgan. Demak, "Talabchanlik, qattiqqo'lilik" gender sifatlar va munosabatlar uchun har ikki jins vakillari tomonidan yoqlangan va hozirgi ijtimoiy munosabatlar tig'izligi sharoitida zarur sifat tariqasida idrok qilinishini asoslaydi,


"O'ziga ishonch" ko'rsatkichi ayollarda amalda 8 ball, erkaklarda 9,4 ball; ideal - orzudagi bahosi ayollarda 10 ball, erkaklarda 11,4 ballni tashkil etgan. "O'ziga ishonch" hissini har ikki jins vakillari ham o'zlarida yuqori bo'lishini xohlashlari bu androgen gender sifatlarini ijtimoiy zarur xulq-atvor sifatida idrok qilinishini, bu faqat erkaklarga

xos sifat hisoblanmasligi haqidagi tasavvurlarni, qarashlarni mavjudligi bilan izohlanadi. Hukmronlik o‘rnatish, buyruq berish erkaklarga xos gender sifatlar tariqasida qabul qilingan. Ammo ayollarning o‘zlariga bergan baholarida 10,5 ball, erkaklar bahosi – 11 ball; ideal orzudagi ayollarning 7,5 ball, erkaklarda 12,2 ballni ko‘rsatgan. Ayollar oila farovonligi, ro‘zg‘or butligi, farzandlar kelajagi uchun erkaklariga haqiqiy hayotda buyruq holatida munosabatlarni shakllanganligini tasdiqlashsa, ideal-orzudagi intilishlarida hukmronlik o‘rnatish, talab, buyruq berish ma’nosida namoyon etishni istamasliklari, har bir vazifa erlari tomonidan ongli ravishda, a’lo darajada bajarilishini istashlari ko‘rinishidagi kutilmalari aniqlandi.

Bu holat erkaklarda aksincha, ular mana shu ko‘rsatkich orqali oilaviy munosabatlarda o‘z hukmronligini saqlanishiga, ijtimoiy mavqelarini, qadr-qimmatini yuqori darajadiligini isbotlashga urinishlari va ishonishlari bilan izohlanadi.

“Shubhalanuvchi” ko‘rsatkichi bo‘yicha aëllarning haqiqiy bahosida 6,2 ball, erkaklarda 6,5 ball; ideal orzuda aëllar 7,7 ball, erkaklar 8,5 balli natijaga ega bo‘lishgan. Ya’ni, shubhalanish bir tomondan qaralganda gender munosabatlarda psixologik noqulayliklarni, nizoli, ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ikkinchi holatda esa, shaxs faoliyati, xulq-atvor natijadorligi, samaradorligiga, ma’lumotlarni aniqliligi, sifatligiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan ham har ikki aël va erkaklarning ideal – orzudagi baholari ko‘rsatkichi haëtdagi ko‘rsatkichlaridan yuqoriroq bo‘lganligi bilan izohlanadi.

Jumladan, shaxs sifatleri: samimiylik, ochiqlik, jo‘shqinlik, mehribonlik, g‘amxo‘rlik, insoniy nazokat, saxiylik, uquvlilik, insonparvarlik, do‘stlik, g‘amxo‘rlik, jonkuyarlik, odamiylik, xushmuomalalilik, iltifotlilik, mehmondo‘stlik, zukkolik, idroklilik kabi androgen xislatlari shakllangan bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi, 1-rasm.



**Respondentlarning real va ideal “MEN” timsoliga xos xususiyatlarini rasmda ifodalanishi, 1-rasm.**

Gender tengligi tamoyili sifatida, insonning shaxs sifatida namoën bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va bartaraf etish, teng ijtimoiy imkoniyatlar yaratish asosidagina erkaklar va aëllarning gender tengligiga erishish mumkin. Shundagina har bir inson o‘z shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlarini haëtning barcha sohalarida namoën eta oladi.

Shuningdek, mavzu doirasidagi adabiëtlarni tahlili natijasida shunday xulosaga kelindiki: Oilada er-xotin gender tengligini ta’minlanishining ijtimoiy-psixologik asoslari tadqiq etish, “Insonning xatti-harakatlarini shakllanishida muhimroq rol o‘ynaydigan ëtnik ëki jinsiy farqlarga ega bo‘lgan guruhlararo munosabatlar tizimi” ni tadqiq etish zarurati tug‘ildi, chunki biz odamlar yashaydigan va ishlaydigan



ijtimoiy-madaniy kontekstlarni o'rganmagunimizcha genderni tushunish ëki gender tengsizlikni kamaytirishga ërisha olmaymiz.

**Xulosa** o'rnida aytishimiz mumkinki;

- Insonning aqliy, ruhiy-ma'naviy, psixologik sog'lomligi va sifatleri jinsga bog'liq emas. Bu ijtimoiy haët tarziga, ijtimoiy, milliy-madaniy munosabatlarga, ijtimoiy gender normalar va haët kechirish tarziga ham bog'liq.
- Androgeniya psixologik holatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- Har ikkala erkak va aëllar tomonidan kasb bilan, ijtimoiy shart-sharoit, haët tarzi bilan bog'liq gender sifatleri va gender rollarning ëng yaxshisini o'zlashtirishi maqsadga muvofiqdir.
- Shuningdek, androgeniya vaziyatning moslashuvchan sifatleri shakllantirilishi kasbkorlik uchun xizmat qilishi, har ikki jins vakillari kasb taqozosi va sharoitga qarab qat'iy bo'la olishi ëki boshqalarning manfaatlarini ëtiborga olishga qaratilgan qobiliyat sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gender statistikasi: asosiy tushunchalar va uning hozirgi kundagi ahamiyati. Statistika gender jihatlarni hisobga olishni ta'minlash. Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti. Statistika bo'limi. Statistik hujjatlar. Seriya F № 111. ST/ESA/STAT/SER.F/111. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Nyu-York, 2016 yil.- 2-bet.
2. <https://www.bing.com/search?form=ANLKDR&q=gender%20stat%20uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli qaror // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2018 y., № 09/18/841/2081.
4. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.09.2019 y., 03/19/562/3681-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 16.12.2022 y., 03/22/809/1091-son; 12.04.2023 y., 03/23/829/0208-son.
5. Burn S. M. (1996). The Social Psychology of Gender. New York: [McGraw-Hill Education](#). (Bern Sh. Gendernaya psixologiya. — SPb.: PRAYM-EVROZNAK, 2002. — 320 s.); Burn S. M. (1999). Environmental Intervention Handbook for Resource Managers: Steps for Shaping Recreationists' Behavior. [United States Department of Agriculture, Forest Service\[angl.\]](#);
6. Каримова В.М Социальные представления об узбекской семье у юношей и девушек: Автореф. дис. ... док. психол. наук. — Ташкент, 1994.
7. Rasulova Z.A. O'zbeklarda oila-nikoh an'alarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi. Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. . T. — 2018 yil.
8. Практикум по общей экспериментальной и прикладной психологии/под.ред.А.А.Крылова, С.А.Маничева. - СПб.: Питер,2002. - С.497-505.
9. Тимоти Лири, Г. Лефоржем и Р. Сазеком в 1954 году, и в 1957 году опубликованная в монографии Тимоти Лири под названием «The Interpersonal Diagnosis of Personality».